

IJODIY KOMPETENSIYA PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

<https://doi.org/10.70728/conf.v2.i02.045>

Mahmudova Madina Zayniddinovna

Annotatsiya: mazkur maqolada ijodiy kompetensiyaning shaxs psixologik rivojlanishidagi o'рни va ahamiyati tahlil etilgan. Unda ijodkorlikning inson faoliyatining barcha jabhalarida — nafaqat san'atda, balki kundalik hayotda ham namoyon bo'lishi mumkinligi yoritilgan. Muallif tomonidan ijodiy kompetensiya tushunchasi V.A. Adolf, G. Olport va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari asosida izohlangan. Ijodiy kompetensiyaning shakllanishida shaxsning kognitiv va motivatsion xususiyatlari, mustaqil fikrlash, nostandart yondashuv hamda yuqori darajadagi faollik muhim omil sifatida ko'rsatilgan. Maqolada, shuningdek, erta yoshdan boshlab bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishning ahamiyati ta'kidlanib, ta'lim jarayonida o'qituvchining ijodiy izlanishlari muhim o'rin tutishi qayd etiladi.

Kalit so'zlar: ijodiy kompetensiya, ijodkorlik, psixologik fenomen, qobiliyat, shaxs rivoji, motivatsiya, kreativlik, ta'lim jarayoni.

Hozirgi kunda har bir fanni o'qitishda bolani har tomonlama rivojlantirish, bolada ijodkorlikni rivojlantirish, uning mustaqilligi va faolligini to'g'ri yo'naltirish kabi masalalarni kompleks hal etish zarurligi keng e'tiborga olingan. Zamonaviy ta'limning asl maqsadi, insonga ma'lum bilimlarni etkazishgina emas, balki uning ma'naviy-axloqiy mohiyatini rivojlantirishdir. Ya'ni yurtimiz yoshlarining hayotda o'z o'rnini topishi uchun, ularning tabiiy iste'dodi va qobiliyatini kashf etishga ko'maklashishga ehtiyoj tobora kuchaymoqda. O'z-o'zini bilish bolani tengdoshlari orasida o'zini hurmat qilishga, o'zini yaxshilashga, boshqalarga taqlid qilishga, muhitda o'zini o'zi boshqarishga, o'zi qaror qabul qila olishga, hamma narsa uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga o'rgatadi. Lekin, bu yo'lda o'qituvchiga katta ijod va izlanish kerak bo'ladi. Busiz o'qituvchi bola qalbiga yo'l topa olmaydi. SHu jihatdan qaralganda, shaxsning ijodiy qobiliyati bilim va ko'nikmalalardan samarali foydalanish va yangi ilg'or g'oyalarni yaratishga qaratilgan xususiyati sanalib, uni tadqiq etish ijodkor shaxsiga xos ko'plab psixologik sifatlarning tabiatini hamda maxsus qobiliyatlar mazmunini yoritishga keng imkon beradi.

V.A.Adolfning ta'rificha, "ijodiy kompetensiya" - bu an'anaviy yoki qabul qilingan fikrlash shakllaridan chetga chiqadigan, tubdan yangi g'ayrioddiy g'oyalarni yaratishga qodirlik, shuningdek, murakkab vaziyatlarda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish

qobiliyati kabi xususiyatlar bilan tavsiflangan shaxsning ijodiy qobiliyatidir¹¹. SHuningdek, ijodkorlik kompetensiyasi murakkab jarayon sanalib, uni o'rganishda qobiliyat, iqtidor, ijod kabi tushunchalarning tabiati ham hisobga olinishi lozim. Zamonaviy psixologiyada ijodiy jarayonga nafaqat aqliy harakat, balki insoniy sifat, obraz yoki turmush tarzi, dunyoga munosabati sifatida qaraladi. SHaxs kamolotidagi ijodiy taqdir, shaxsning madaniyat bilan munosabati va muloqot malakalari bilan belgilanadi. Psixolog G.Olport o'zining "SHaxs" nomli birinchi fundamental kitobida shunday deydi: "har bir rassom, bastakor, o'qituvchi, o'quvchi, pianinochi, haykaltarosh, raqqosa, shoir, dramaturg, rassom, notiq, fotograf, akrobat, uy bekasi va oddiy haydovchining o'ziga xos harakatlar uslubi bor. Biz SHopinning sonatlarini, Van Gogning rasmlarini va Salli xolaning piroglarini bir uslubda taniy olamiz. Demak, uslub ijodiy qobiliyatning yuqori darajasi sanalib, u yaxshi integratsiyalashgan va shaxsning muvaffaqiyatli xatti-harakati ishtirok etganda yuzaga keladi" deb ta'kidlaydi¹².

So'zlariga ko'ra, ijodkorlik albatta, cheklangan amaliyot sohalarida shaxs individualligini aks ettirish yoki yaxshi rasm chizishni anglatmaydi, balki u kundalik va oddiy ko'rinadigan narsalarda, masalan, kechki ovqat tayyorlash, mashinani ta'mirlash va hatto pol yuvishda ham ifodalanishi mumkin. SHunga qaramay, masalan, ko'pchilik yaxshi asar va ijod namunalarini dunyodagi eng yaxshisi deb baholashadi, bu yangiliklarni yaratishga bo'lgan ijodiy yondashuvni aks ettiradi va muhabbat bilan uyg'unlashadi. Demak, ijodiy kompetensiya insonning o'ziga xos sifatlari va maxsus qobiliyatlari majmui sanalib, yangi va ilg'or g'oyalarni yaratishga xizmat qiladi.

Ilmiy asoslarga ko'ra, ko'ra, "ijodiy kompetensiya" mazmunini tahlil qilish, birinchi navbatda, "qobiliyat" tushunchasini tushunishni talab qiladi. Falsafada "qobiliyatlar" shaxsning muayyan harakatni amalga oshirish imkonini beruvchi shaxsiy xususiyatlari bo'lib, ular ijtimoiy-tarixiy faoliyat natijasida shakllanib, yanada rivojlanib borishini ta'kidlanadi. "Ijod" so'zining ma'nosi etimologik jihatdan "ishlab chiqarish", "ixtiro qilish" degan ma'noni anglatadi¹³. Demak, bu yangi narsa ixtiro qilish, muvaffaqiyatga erishish demakdir. Falsafiy lug'atda shunday izoh berilgan: "... ijodkorlik – o'ziga xos, tarixiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, yuqori sifatli yangiliklarni ochib beruvchi harakatdir"¹⁴.

¹¹ Адольф В.А. Теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителя: дис.... д-ра пед.наук М., 1999. – С.96.

¹² Alport D. Psychology of the power: theory of subjection; translated by Zaven Babloyan. - Kharkov : HTsGI; SPb. : Aleteya. - 2002. - 168 pages - (Gender Researches series).

¹³ Андреев В. И. Диалектика воспитания и самовоспитания творческой личности: основы педагогики творчества. - Казань: Изд-во Казан, ун-та, 2007. – С.85.

¹⁴ Словарь философских терминов / науч. ред. проф. В.Г. Кузнецова. – М.: Инфра-М, 2005. Список немецких терминов в алфавитном порядке: с. 648 – 658.

A.A.Kalmikovaning xulosalariga ko'ra, ko'plab davlatlarda qobiliyatli bolalar bo'yicha olib borilgan psixologik ilmiy tadqiqot va amaliyotlarda, o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini jadal rivojlantirish uchun, yuqori motivatsiya, nostandart qaror qabul qilish hamda fikrlash, kreativlik kabi xususiyatlar talab etilishini ta'kidlab o'tadi¹⁵: SHunday qilib, ijodkorlikning shaxsiy belgilariga nafaqat kognitiv (bilishga oid, aqliy) qobiliyatlar, balki kognitiv bo'lmagan (motivatsion, hissiy) tavsifnomalar ham taalluqli ekan. SHuning uchun, ijodiy qobiliyatlarning poydevori erta yoshdan boshlab qo'yilishi lozim. Bola qanchalik, o'z vazifalarini sevsa, bajarsa va qayg'ursa, xayoliy harakatlar shunchalik muhim va samarali bo'ladi. Har bir davrda innovatsion g'oyalarni targ'ib qiluvchi sifatli, sog'lom, ongli avlodni tarbiyalash har bir o'qituvchilarning asosiy vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Adolf V.A. Teoreticheskie osnovy formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya: dis.... d-ra ped.nauk M., 1999.
2. Торренс Э. Активизация различных видов учебных занятий в институте. Методическая разработка. - Д.: ИПК СП, 2014. – 78 с.
3. Альтшуллер Г. С. Творчество как точная наука. - М.: Наука, 2011. – С.96.
4. Alport D. Psychology of the power: theory of subjection; translated by Zaven Babloyan. - Kharkov : HTsGI; SPb. : Aleteya. - 2002. - 168 pages - (Gender Researches series).
5. Андреев В. И. Диалектика воспитания и самовоспитания творческой личности: основы педагогики творчества. - Казань: Изд-во Казан, ун-та, 2007. – С.85.

¹⁵ Калмыкова А.А. Проблема развития креативности в исследованиях отечественных и зарубежных ученых // Сборник научных трудов Сев-КавГТУ. Сер. Гуманитарные науки. 2010.– № 8.36 - 39